



ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHALAR IJTIMOIYLASHUVIGA SUBMADANIYATNING TA'SIRI.

Qurbonova Umida Komilova

SamDU 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida submadaniyatning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Z.Bauman va M. Castells kabi xalqaro olimlarning sotsiologik nazariyalari hamda mahalliy tadqiqotchilar S.Aktimirov va Abbosova M.ning ilmiy xulosalariga tayanilgan. Maqolada submadaniyatlarning yoshlar ijtimoiy adaptatsiyasidagi ijobiy kreativlik hamjamiyat hissi va salbiy ya'ni eksapizm, ijtimoiy begonalashuv jihatlari o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida milliy qadriyatlar va zamonaviy oqimlarning o'zaro ta'siri "globallashuv" jarayoni yoritib berilgan. Tadqiqot yakunida yoshlar bilan ishlashda ta'qiqlovchi emas, balki integratsiyalashgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar; yoshlar ijtimoiylashuvi, submadaniyat, raqamli avlod, identlik globallashuv, ijtimoiy adaptatsiya, vizual estetika.

Zamonaviy sotsiologiyada ijtimoiylashuv jarayoni insonning jamiyat qonun-qoidalari, qadriyatlari va normalarini o'zlashtirish bosqichida qaraladi. Biroq XXI asrda ushbu jarayon faqatgina oila yoki ta'lim muassasalari nazoratida bo'lmay qoldi. Yoshlar "parallel dunyolar" - submadaniyatlar ta'siriga tobora ko'proq berilmoqda. Submadaniyat - bu yoshlarning nafaqat kiyinish uslubi, balki dunyoni ko'rish prizmasidir.

Submadaniyatning tushunchasini ilmiy jihatdan asoslashda 2 yirik maktab nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Z. Bauman va "Suyuq zamonaviylik" Bauman ta'rificha, bugungi jamiyatda barqaror institutlar yo'qolmoqda. Yoshlar bunday "suyuq" sharoitda o'zlariga "suvosti qoyalari" kabi tayanch qidiradilar. Submadaniyatlar mana shu vaqtinchalik, ammo kuchli tayanch vazifasini o'taydi.

Castells virtual olamning real hayot ustidan ustunligini isbotladi. Uning fikricha, raqamli submadaniyatlar (geymerlar, kiber-jamiyatlar) yoshlarga yangi "identlik lohiyasi"ni taklif qiladi. Bunda milliy chegara yo'qoladi, faqat umumiy qiziqishlar ustunlik qiladi.

Nega submadaniyatlar yoshlarni o'ziga tortadi? Buning zahirida bir nechta fundamental ehtiyojlar yotadi.

-O'zlikni izlash;

O'smirlik davrida "Men kimman?" savoliga javob topish qiyinlashadi. Submadaniyat tayyor "estetika" va "obraz" taklif etadi.





-Referent guruh ehtiyoji;

Yoshlar uchun ota- onasining fikridan ko'ra, o'ziga o'xshash "tengdosh – do'st"ning tan olishi muhimroq.

-Hissiy erkinlik;

Submadaniyatning ichida yoshlar o'zlarini dushmanona yoki tushunarsiz jamiyatdan himoyalangan his qiladilar.

-Zamonaviy submadaniyat turlari va ularning xususiyatlari :

Bugungi kunda submadaniyatlarning 3ta asosiy yo'nalishda rivojlanmoqda. Bular intellectual va estetik oqimlar, raqamli submadaniyatlar va fan-klublar.

Ijtimoiylashuvga ijobiy va salbiy ta'sirlar;

-Ijobiy tomonlari (adaptatsiya).

Muloqot qilish va jamoada ishlash , depressiyaga qarshi kurashish, bag'rikenglikni o'rganish, content yaratish, dizayn va musiqa hisoblanadi.

-Salbiy tomonlari;

Jamiyatning boshqa qatlamlaridan uzilish,eksapizm ya'ni real muammolardan qochish , milliy va an'anaviy qadriyatlarni rad etish , va iste'molchilik madaniyatiga qul bo'lish demakdir.

Mahalliy tadqiqotchilar S.Aktimirov va M.Abbosova o'zbek yoshlarining o'ziga xosligini o'rganib shunday xulosaga kelishgan; bizda "Glocalization" ya'ni global va local sintez jarayoni ketmoqda. O'zbek yoshlari global trendlarni ko'r-ko'rona qabul qilmaydi, balki ularni milliy filtdan o'tkazadi. Masalan , ijtimoiy tarmoqlardagi " o'zbek vlogging " submadaniyati milliy hazil va qadriyatlarni zamonaviy texnologik format bilan birlashtirmoqda. Biroq , N. To'raqulov o'z maqolasida ta'kidlaganidek , yoshlarning chet el submadaniyatiga haddan tashqari berilishi ba'zan " madaniy begonalashuv " xavfini tug'diradi.

Unicef Uzbekistan 2024 hisobotlariga ko'ra , submadaniyatlarni ta'qiqlash ularning " yashirin" va " agressiv" shakllanishiga olib keladi. Strategiya quyidagicha ;

- Dialog maydoni; Maktab va oliy ta'limda yoshlarning qiziqishlarini muhokama qiladigan ochiq platformalar yaratish.

- Media –savodxonlik; Yoshlarga submadaniyat ichidagi manipulatsiyalarni masalan,deskruktiv oqim g'oyalarini tanishni o'rgatish .

- Integratsiya ; Submadaniyat elementlarini ta'lim va ijtimoiy foydali loyihalarga jalb qilish . Masalan , geymerlarni kiber-sport musobaqalariga , san'at ishqibozlarini milliy brendlarni yaratishga yo'naltirish lozim.

Xulosa qilib aytganda submadaniyat- bu o'smirlik ,davridagi "vaqtinchalik uy"dir. Bu bosqichdan hamma yoshlar o'tadi. Asosiy vazifa –ushbu jarayonni nazorat ostidagi olish emas, balki, uni to'g'ri yo'naltirishdir . Submadaniyatlar orqali shakllangan kreativlik va ijtimoiy faollikni jamiyat rivoji uchun ishlatish mumkin . Zero, bugungi "fandom" a'zosi ertaga global miqyosdagi kreativ iqtisodiyot mutaxasisi bo'lib yetishishi hech gap emas.





Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bauman. Z. (2000). Liquid Modernity.
2. Castells. M. (2010). The Rise of the Network society. Wiley-Blackwell.
3. Aktimirov. S. Abbosova. M. (2025). Zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiylashuviga submadaniyatning ta'siri.
4. To'raqulov. N. (2021). Yoshlar va submadaniyat; sotsiologik tahlil.
5. Unicef Uzbekistan . (2024) . Bolalar va o'smirlarning ruhiy salomatligi. Ijtimoiy guruhlar ta'siri . (Hisobot).